

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Boshqaruvining

2024-yil “25” maart dagi

62-sonli qaroriga

2-ILOVA

Yuridik departament
Metodologiya boshqarmasida

2024-yil “28” may da

65-son bilan

“RO'YXATGA OLINGAN”

“TASDIQLANGAN”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Kuzatuv kengashining

2024-yil “27” maart dagi

- sonli qarori bilan



“Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat bankining
Korporativ boshqaruv Siyosati
(yangi tahrirda)

“BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANKI” ATB
ICHKI ME'YORIY HUJJAT

**“Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat bankining
Korporativ boshqaruv Siyosati**
(yangi tahrirda)

I. Umumiy qoidalar

1. “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat bankining (keyingi o‘rinlarda – “bank” deb yuritiladi) Korporativ boshqaruv Siyosati (keyingi o‘rinlarda – “Siyosat” deb yuritiladi) o‘zining haqqoniy va ochiq biznes yuritish tarafdori ekanligini namoyon qilgan holda ixtiyoriy ravishda amal qiluvchi tavsiyalardan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlariga va “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. **Siyosat maqsadlarida korporativ boshqaruv** – Bank strategik maqsadlarini aniqlash va ularga erishish ustidan nazorat qilish uchun zarur tashkiliy tuzilmani shuningdek, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish imkonini ta‘minlovchi, bank boshqaruv organlari va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi munosabatlar majmui shu jumladan, boshqaruv organlarining vakolatlarini va javobgarligini taqsimlash hamda boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish imkonini yaratish tushuniladi.

3. Quyidagilar samarali korporativ boshqaruvning asosi hisoblanadi:

Bankning ichki hujjatlarida belgilanadigan vakolat va vazifalarning aniq tarzda taqsimlanishi;

yetarli darajadagi hisobdorlik;

o‘zaro nazorat qilish hamda bank uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan qarorlar qabul qilinishining oldini olishni ta‘minlovchi, bank Boshqaruvi organlari va (yoki) tarkibiy tuzilmalar o‘rtasidagi vakolatlarning taqsimlanishi;

o‘zining vakolatlari va vazifalarini yaxshi biluvchi, funksional vazifalarini bajarishda yuqori darajadagi ishbilarmonlik va odob-axloq qoidalariga rioya etuvchi, bank Kuzatuv kengashining va ijroiya organining (keyingi o‘rinlarda Boshqaruv deb yuritiladi) yuqori malakali a’zolari mavjudligi.

4. Bank Kuzatuv Kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolari o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda mas’uliyatni his qilgan holda javobgarlikni va jonkuyarlikni namoyon qilishi hamda sodiqlik bilan xizmat qilishi lozim.

II. Bank Kuzatuv kengashi faoliyati

5. Bank Kuzatuv kengashining vakolatiga O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi hamda “Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlarida belgilangan masalalar kiradi.

6. Bank Kuzatuv kengashi a'zolaridan o'z vazifalarini amalga oshirishlari doirasida quyidagilar talab etiladi:

Faoliyat yuritayotgan bank korporativ boshqaruvining tashkiliy tuzilmasini, bank Kuzatuv kengashining funksiyalarini bilishi, korporativ boshqaruvdagi o'zining o'rnini anglashi, bank faoliyatiga xos bo'lgan tavakkalchiliklar haqida tasavvurga ega bo'lishi, shuningdek, bank-moliya sohasidagi tavakkalchiliklarni boshqarish va korporativ boshqaruvni tashkil etish borasidagi bilim va malakasini doimiy ravishda oshirib borishi;

bank faoliyatida faol qatnashishi, uning faoliyatidagi va tashqi sharoitlardagi muhim o'zgarishlarni kuzatib borishi, shuningdek, uzoq muddatli istiqbolda bank manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan choralarini o'z vaqtida ko'rishi;

bankning korporativ madaniyati va qadriyatlari shakllanishida yetakchi o'rinni tutishi;

ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashining boshqa a'zolari, Boshqaruv a'zolari va bank xodimlarining qarashlaridan qat'i nazar o'zining asoslangan fikrini bildirishi;

mas'uliyatni his qilgan holda javobgarlikni va jonkuyarlikni namoyon qilishi, sodiqlik bilan xizmat qilishi, bank va uning barcha aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab, yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni vijdonan va oqilona tarzda amalga oshirishi, o'zining yoki ayrim shaxslar manfaatlari yo'lida o'z vakolatlarini suiiste'mol qilmasligi;

manfaatlar to'qnashuviga olib keluvchi harakatlardan qochishi, shuningdek, manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganligi haqida darhol Kuzatuv kengashiga xabar berishi va uni bartaraf etish yuzasidan chora ko'rishi;

Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislarida o'z vakolatlarini uchinchi shaxsga o'tkazmagan holda ishtirok etishi;

Kuzatuv kengashiga a'zoligi chog'ida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan tijorat, bank siri va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya etishi lozim.

7. Kuzatuv kengashi raisligiga, agar bank ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ko'pchilik ovoz bilan Kuzatuv kengashi a'zolarining biri saylanadi.

8. Kuzatuv kengashi raisi uning faoliyatini boshqarish va samaradorligini ta'minlashga javobgar bo'lib, Kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasida ishonchli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

9. Bankning Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida rais to'liq va keng qamrovli ma'lumotlarni tahlil qilgan holda mustaqil fikr almashinuvlari, tanqidiy qarashlar va ijodiy yondashuvlar asosida qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi.

Bankning Kuzatuv kengashi a'zolari soni va uning tarkibi bank faoliyatining miqyosi va xususiyati, uning rivojlanish maqsadlari va strategiyalaridan kelib chiqib, bank Ustavida va Nizomlarida belgilanadi.

10. Bankning Kuzatuv kengashi o'z faoliyatining samaradorligini ta'minlash uchun davriy ravishda, yilda kamida bir marotaba Kuzatuv kengashining har bir a'zosining kasbiy

mas'uliyatini ular amalga oshirgan ishlarning samaradorlik ko'rsatkichlari va natijalari asosida baholaydi hamda o'zining boshqaruv usullari va Siyosatining samaradorligini ko'rib chiqadi, ulardagi muammoli jihatlarni aniqlaydi, tegishli o'zgartirish hamda qo'shimchalarni kiritadi.

11. Bank Kuzatuv kengashi o'zining vazifa va majburiyatlarini bajarishda ichki nazorat hamda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlariga tayanadi va ularning faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshiradi.

12. O'z ishining samaradorligini ta'minlash uchun Kuzatuv kengashi maxsus qo'mitalar (keyingi o'rnlarda Qo'mitalar deb yuritiladi), jumladan, Audit qo'mitas, Risklarni boshqarish qo'mitas, Rag'batlantirish qo'mitas, shuningdek, boshqa Qo'mitalarni tashkil etishi mumkin.

13. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tashkil etilgan qo'mitalarning asosiy vazifasi vakolat doirasida masalalarni chuqur o'rganish hamda ular bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, Kuzatuv kengashining nazoratga doir vazifalarini bajarishida unga ko'maklashish hisoblanadi.

14. Qo'mitalar Kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosi, bank strategiyasi va maqsadlarining bajarilish jarayonini tahlil qiladi, bank faoliyatiga oid muntazam hisobotlar hamda o'zlarining tavsiyalarini Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi.

15. Qo'mitalar tarkibi bank Kuzatuv kengashining uchtadan kam bo'limgan a'zolaridan tashkil topishi zarur. Qo'mita boshqa qo'mita a'zoligida bo'lgan aynan bir shaxslar tarkibidan iborat bo'lishiga, shuningdek, Kuzatuv kengashining bir a'zosi bir vaqtning o'zida turli qo'mitalar raisi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

III. Maxsus qo'mitalar

16. Ichki nazorat tizimini samarali tashkil etish maqsadida Kuzatuv kengashi Audit qo'mitasini tashkil etishi zarur.

17. Qo'mitaning ko'pchilik a'zolari bankka aloqador shaxslar bo'lmagligi kerak, bundan ularning Kuzatuv kengashidagi a'zoligi mustasno.

18. Audit qo'mitasining raisi Kuzatuv kengashi raisi bo'lmagligi lozim.

19. Audit qo'mitasining a'zolari oliy ma'lumotga, audit xizmati maqsadlari va vazifalariga mos keluvchi malaka va tajribaga ega bo'lishi lozim. Audit qo'mitasining kamida bitta a'zosi audit, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot bo'yicha kamida besh yillik tajribaga ega bo'lishi kerak.

20. Audit qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Moliyaviy hisobot va ichki audit siyosatini ishlab chiqish hamda tasdiqlash jarayonida ishtirot etish;

nazoratga oid, moliyaviy va boshqa hisobotlarning taqdim etilishini, to'liqligini, ishonchliliginizi nazorat qilish;

o‘z vakolati doirasidagi masalalar yuzasidan Kuzatuv kengashi yig‘ilishlariga ma’lumotlar tayyorlash va Kuzatuv kengashiga hisobotlar taqdim etish;

bankning ichki va tashqi auditorlar bilan o‘zaro aloqasini nazorat qilib borish;

Ichki audit xizmati rahbarini tayinlash (lavozimidan ozod qilish) masalasini ko‘rib chiqib, Kuzatuv kengashiga taklif kiritish;

Ichki audit xizmatining choraklik hisobotlarini o‘rganib chiqish va Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

bankning ichki nazorat tizimi va ichki audit faoliyati samaradorligi va monandligini ta’minalash uchun ularni baholash, ichki audit tekshiruvlari rejasi va ularning davriyligini ko‘rib chiqish, ichki audit xizmati rahbari o‘z vazifa va majburiyatlarini qay darajada amalga oshirayotganligini baholashda ishtirok etish va o‘z fikrlarini bildirish;

har chorakda kamida bir marta ichki audit xizmati rahbari bilan uchrashuv o‘tkazib, Ichki audit xizmati faoliyatiga oid masalalarni muhokama qilish;

tashqi auditor takliflarini baholashda Kuzatuv kengashiga amaliy yordam berish, tashqi auditorni tanlashda Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash;

tashqi auditorlarning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzilishi (bekor qilinishi) to‘g‘risida Kuzatuv kengashiga takliflar kiritish;

tashqi auditorlar uchun texnik vazifalarni ishlab chiqishda Kuzatuv kengashiga amaliy yordam berish;

ichki va tashqi audit hisobotlarini qabul qilib olish hamda ularda va boshqa nazoratni amalga oshiruvchi bo‘linmalar tomonidan aniqlangan qonun hujjatlari, bankning siyosatlari va ichki hujjatlariga nomuvofiqliklar va kamchiliklarni bank Boshqaruvi tomonidan o‘z vaqtida bartaraf etilishini nazorat qilish;

tashqi auditorlik hisobot va xulosalarni ko‘rib chiqish va ularni Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

tashqi auditorlar faoliyati qoniqarsiz deb baholangan taqdirda, ularni o‘zgartirish yuzasidan Kuzatuv kengashiga tavsiyalar berish;

bank faoliyatining shaffofligi va ma’lumotlarning oshkor qilinishi yetarli darajada va aniq ekanligini ko‘rib chiqish;

o‘z faoliyati to‘g‘risida hisobot tayyorlash;

Kuzatuv kengashi tomonidan yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish.

21. Bankda tavakkalchilikni samarali boshqarish maqsadida Kuzatuv kengashi bank risklarini boshqarish qo‘mitasini tashkil etadi.

22. Qo‘mitaning ko‘pchilik a’zolari bankka aloqador shaxslar bo‘lmasligi kerak, bundan ularning Kuzatuv kengashidagi a’zoligi mustasno.

23. Bank risklarini boshqarish qo‘mitasining kamida bitta a’zosi bank-moliya tashkilotlarida tavakkalchiliklarni boshqarish sohasi bo‘yicha kamida besh yillik tajribaga ega bo‘lishi kerak.

24. Bank risklarini boshqarish qo‘mitasining raisi Kuzatuv kengashi raisi bo‘lmasligi lozim.

25. Bank risklarini boshqarish qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Risklarni boshqarish masalalari va ichki nazoratga doir hujjatlar, shu jumladan, bank risklarni boshqarish qo‘mitasining boshqarishni tashkiliy tuzilmasi, tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasi va siyosati, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish siyosati va odobaxloq qoidalarini ko‘rib chiqish, Kuzatuv kengashiga risklarini boshqarish tizimiga oid tavsiyalarni kiritish;

boshqaruv va risklarini boshqarish bo‘yicha tarkibiy tuzilma tomonidan tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi, shu jumladan, risk-appetit va risklarni boshqarish siyosatining ishlab chiqilishi, ularga rioya etilishi va ularning o‘z vaqtida yangilab borilishi ustidan nazorat qilish;

bank tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan risklarni baholash, shu jumladan, stress-test qilish uslublarini davriy ravishda ko‘rib chiqish;

bank Kuzatuv kengashiga taqdim etiladigan risklarga oid ma’lumotlarning (hisobotlarning) tuzilishi va shakli hamda ularni taqdim etish muddatlarini belgilash;

Bankning risklar sohasi (risk-profil) tasdiqlangan risk-appetitga mos emasligi yoki me’yordan chiqib ketishi kutilayotgan holatlarda, risklarning kamaytirilishi va ular yuzasidan o‘z vaqtida choralar ko‘rilishi bo‘yicha qarorlar qabul qilish to‘g‘risida Kuzatuv kengashiga takliflar berish;

bankning rag‘batlantirish tizimi bankning risk-appetitiga muvofiqligini o‘rganib borish;

risklarini boshqarish bo‘yicha tarkibiy bo‘linma tomonidan taqdim etiladigan bankda yuzaga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklar bo‘yicha hisobotlarni kamida har chorakda bir marta qabul qilib borish va risklarni kamaytirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish;

risklarni boshqarish bo‘yicha mas’ul bo‘lgan xodimlarning boshqaruv va risklarni qabul qiluvchi boshqa tarkibiy bo‘linmalardan mustaqilligini baholab borish;

risklarni boshqarish bo‘yicha tarkibiy bo‘linma rahbarlari faoliyatini baholash jarayonida qatnashish yoki fikr bildirish;

o‘z faoliyati to‘g‘risida choraklik hisobotlarni tayyorlash;

Kuzatuv kengashi tomonidan yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish.

26. Bankda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklar bo‘yicha ma’lumotlarni o‘zaro almashish, shuningdek, risklarni boshqarish tizimiga o‘z vaqtida o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha choralarни ko‘rish maqsadida bank risklarini boshqarish qo‘mitasi (agar tashkil etilgan bo‘lsa) va Audit qo‘mitasi o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi zarur.

27. Mehnatga haq to‘lashning ichki tizimi bankning risklarni qabul qilish darajasiga, uzoq muddatli strategiyani amalga oshirishga, risk-appetitiga, moliyaviy natijalarga, ichki nazoratning tizimiga, qonun hujjatlari talablariga va bank ichki me’yoriy hujjatlariga muvofiqligi bo‘yicha Kuzatuv kengashiga yordam ko‘rsatish va tavsiyalar kiritib borish maqsadida Rag‘batlantirish va tayinlovlar qo‘mitasi tashkil etiladi.

28. Rag‘batlantirish va tayinlovlar qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a’zolari hamda muhim ahamiyatga ega xodimlarni mukofotlash bo‘yicha siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etish va uni kamida bir yilda bir marotaba qayta ko‘rib chiqish;

rag‘batlantirish siyosati hamda turli xil rag‘batlantirish dasturlarining joriy qilinishi va amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

mehnatga haq to‘lash va kompensatsiya qilishga oid qabul qilingan qarolarning ijrosini nazorat qilish;

Kuzatuv kengashi va boshqaruv a’zolari hamda muhim ahamiyatga ega xodimlarga mukofot to‘lovlarini belgilashda ularning majburiyatları va mos ravishda risklarni qabul qilish darajasini hisobga olgan holda ularning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish;

agarda Kuzatuv kengashi tomonidan ushbu vazifa yuklatilgan bo‘lsa, mukofotlash siyosatida aks ettirilgan mezonlar asosida Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a’zolari, shuningdek, muhim ahamiyatga ega xodimlarning yil yakunlari bo‘yicha faoliyatini dastlabki baholashdan o‘tkazish, shuningdek, ushbu shaxslarning uzoq muddatli belgilangan maqsad va vazifalarga erishganini tahlil qilish;

mehnatga haq to‘lash va kompensatsiya tizimi ichki hujjatlarga muvofiqligini baholab borish;

bank Kuzatuv kengashi tomonidan yuklatilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

IV. Mehnatga haq to‘lash tizimi

29. Bankning mehnatga haq to‘lash tizimi korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish va risklarni boshqarish madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

30. Mehnatga haq to‘lash tizimi bankning biznes-rejasi, bankni rivojlantirish strategiyasi, maqsadi va bank risklarini boshqarish siyosati hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan choralarga muvofiq bo‘ladi, shuningdek, yuqori darajadagi tavakkalchiliklarni qabul qilishini cheklaydi.

31. Kuzatuv kengashi yoki Rag‘batlantirish va tayinlovlar qo‘mitasi Boshqaruv tomonidan mehnatga haq to‘lash tizimiga rioya qilish darajasini nazorat qilib boradi va yiliga kamida bir marta mehnatga haq to‘lash tizimining samaradorligini qayta ko‘rib chiqadi.

32. Boshqaruv a’zolari, muhim ahamiyatga ega xodimlar va boshqa xodimlarning mehnatiga haq to‘lash tizimi Kuzatuv kengashi tomonidan bank strategiyasi, biznes-rejasi, moliyaviy ko‘rsatkichlar, prudensial talablar hamda risklarni boshqarish holatidan kelib chiqib tasdiqlanadi, bundan to‘lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlari bank aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatida bo‘lgan hollar mustasno.

33. Bank Kuzatuv kengashining a'zolariga to'lanadigan haq aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida to'lanadi.

34. Mehnatga haq to'lash tizimi quyidagilarni qamrab olishi zarur:

Bank xodimlariga mukofot va kompensatsiya to'lovlari miqdori va tartibini belgilashda xodimlarning ish faoliyatidagi natijasi, risklarni qabul qilish darajasi, bankning tavakkalchiliklar sohasi (risk-profili) va faoliyati miqyosidan kelib chiqib belgilanishi;

risklarni boshqarish tizimi va o'rnatilgan tavakkalchilik me'yordi hamda qonun hujjatlari talablari buzilganda, bankning xodimlari va (yoki) kollegial organlari tomonidan qabul qilingan tavakkalchiliklar oqibatida yo'qotishlar yuzaga kelganda, shuningdek, bank samarasiz va (yoki) zarar bilan faoliyat yuritayotgan hollarda kompensatsiya va rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlarni bekor qilish yoki ularning miqdorini pasaytirish masalalarini qayta ko'rib chiqish;

bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan o'rnatilgan vazifalar va ko'rsatkichlarga erishilmaganda, Kuzatuv kengashi tomonidan boshqaruv va muhim ahamiyatga ega xodimlarga belgilangan kompensatsiya va rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlarni tegishli tartibda qayta belgilanishini ta'minlaydi.

V. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga doir choralar

35. Bank va quyidagi shaxslar o'rtasida o'zaro munosabatlar va aloqalar natijasida manfaatlar to'qnashuvi vujudga kelishi mumkin:

Bank mijozlari;

bank aksiyadorlari;

Kuzatuv kengashi yoki boshqaruv a'zolari;

bank xodimlari;

bankka aloqador shaxslar;

boshqa manfaatdor tomonlar (omonatchilar, kreditorlar va bankdan manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslar), shu jumladan, oxirgi benefitsiar mulkdorlar.

36. Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zoligiga hamda muhim ahamiyatga ega xodim lavozimiga tayinlangan (saylangan) xodimning yaqin qarindoshlarining ro'yxati bankning elektron bazasida shakllantirilishi va elektron baza muntazam yangilanib borilishi kerak.

VI. Bank xodimlarining odob-axloq qoidalari

37. Bank Kuzatuv kengashi bankda yagona korporativ madaniyatni yaratish maqsadida:

Bank faoliyati qonuniy va odob-axloq qoidalari asosida yuritilishi uchun korporativ qadriyatlar va standartlarini o'z ichiga olgan bankning Odob-axloq kodeksini qabul qilishi va ularda belgilangan qoidalarga barcha xodimlar, shu jumladan, bankning Boshqaruv organlari tomonidan rioya etilishini ta'minlaydi;

korporativ qadriyatlar va standartlari, Odob-axloq kodeksi hamda bank tomonidan ishlab chiqilgan tegishli siyosatlar barcha xodimlarga tushuntirilishi va ijro uchun yetkazilishi ustidan nazorat qiladi;

nomaqbul xatti-harakat va (yoki) qoidabuzarlikni amalga oshirgan xodimlar, shu jumladan, bank Boshqaruviga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

38. Odob-axloq kodeksi korporativ boshqaruvning qonunchilikda belgilangan barcha jihatlarini o'z ichiga olishi lozim.

39. Odob-axloq kodeksiga bank tashkiliy tuzilmasining barcha pog'onalaridagi xodimlari, shu jumladan, Kuzatuv kengashi va boshqaruv a'zolari rioya etishlari zarur.

VII. Noo'rin xatti-harakatlar haqida xabar qilish tizimi

40. Bankda qonun hujjatlari va odob-axloq qoidalariga zid bo'lgan xatti-harakat sodir bo'lganda, tegishli choralarни o'z vaqtida ko'rish maqsadida noo'rin xatti-harakatlarni aniqlash va ular haqida xabar berishning samarali tizimi ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.

41. Mazkur tizim xodimlarga bankda sodir bo'lgan noo'rin va qonunga xilof xatti-harakatlar to'g'risida maxfiylik va xavfsizlik ta'minlangan holda Kuzatuv kengashini xabardor qilish imkonini yaratishi kerak.

42. Noo'rin xatti-harakatlar haqida xabardor qilish tizimining maqsadlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ehtimoliy noo'rin xatti-harakatlar haqida o'z vaqtida xabardor qilishni rag'batlantirish;

noo'rin xatti-harakatlar haqida maxfiy tartibda va xavfsiz xabar qilish uchun vosita (kanal) bilan ta'minlash;

noo'rin xatti-harakatlarga doir xabar yuzasidan izchil va o'z vaqtida chora ko'rinishini ta'minlash hamda xabardor qiluvchi shaxslarni o'z huquqlari to'g'risida boxabar qilish;

Kuzatuv kengashi tomonidan xodimlar noo'rin xatti-harakatlar yuzasidan maxfiy tarzda xabar qilishlarini belgilovchi qoidalarga rioya etilishi ustidan tegishli nazorat ta'minlanishi;

bank va uning aksiyadorlari huquqlarini himoya qilish.

43. Xabar qilinayotgan (ma'lum qilinayotgan) axborot ehtimoliy noo'rin xatti-harakatlar sodir bo'lganligi yoki sodir bo'lishi to'g'risida dalolat beruvchi, tekshirish imkoni mavjud bo'lgan faktlarga yoki shart-sharoitlarga asoslangan bo'lib, noo'rin xatti-harakatlar haqida xabardor qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

mansabni suiiste'mol qilish yoki nomaqbul xatti-harakat, shu jumladan, firibgarlik yoki korrupsiya sodir etish;

qonun hujjatlari va (yoki) bank ichki hujjatlariga rioya etmaslik;

nomaqbul yoki odob-axloq qoidalariga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakat; huquqiy majburiyatlarga amal qilmaslik; bank ustaviga asosan boshqa holatlar.

44. Basharti ma’lumot haqqoniy va ishonchli bo‘lsa, bankning har qanday xodimi yoki manfaatdor shaxs noo‘rin xatti-harakatlar yuzasidan xabar qilishi lozim.

VIII. Bank Boshqaruv faoliyati

45. Bank Boshqaruvi bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo‘lib, u bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda bankning faoliyati uchun javobgarlikni to‘liq zimmasiga oladi.

46. Boshqaruv raisi bank faoliyatini boshqarish va bank xodimlari ustidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur bilim, malaka va yaxshi xulq-atvorga ega bo‘lishi kerak.

47. Boshqaruv o‘z vazifalarini amalga oshirish doirasida quyidagilar talab etiladi:

Bankning strategik maqsadlari, biznes-rejasi va korporativ boshqaruvga oid siyosatida belgilangan vazifalarni amalga oshirishi;

tashkiliy tuzilmaning barcha darajalarida Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan siyosatlarga, tartib va lavozim yo‘riqnomasiga rioya etishi yuzasidan samarali monitoring tizimini o‘rnatish va davriy ravishda ushbu tizim samaradorligini tekshirishi;

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim axborotning tegishli tarzda tayyorlanishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlovchi ishonchli axborot tizimlarini o‘rnatishi;

biznes-reja ko‘rsatkichlari va bank strategiyasi bajarilishini baholash imkonini beruvchi, o‘z ichida moliyaviy va boshqa faoliyatning amaldagi natijalarini aks ettirgan hisobotlarning o‘z vaqtida Kuzatuv kengashiga taqdim etilishini ta’minalash;

bankning moliyaviy ahvoli yomonlashuvi yoki bunday holat yuz berishi xavfi hamda biznes-reja, strategik maqsadlar, tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasi va risk-appetitdagi o‘zgarishlar, tavakkalchilik chegaralari (limiti) va prudensial talablar buzilishi, ichki nazoratdagi xatoliklar, huquqiy yoki tartibga solish bilan bog‘liq muammolar yuzasidan kechiktirilmagan tarzda Kuzatuv kengashiga xabar berish;

bankni boshqarishning tegishli va ochiq tashkiliy tuzilmasini, shuningdek, o‘z vakolatlari doirasida bank xodimlari o‘rtasida vakolatlar va majburiyatlar taqsimlanishini ta’minalash;

bank xodimlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

xodimlarni, jumladan, boshqaruv a’zolari, agar bank ustavida o‘zgacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, muhim ahamiyatga ega xodimlarni ishga qabul qilish va bo‘shatish, ularning o‘zgartirilishi (rotatsiyasi) va lavozim bo‘yicha ko‘tarilish, malakasini oshirish, malakali xodimlarni saqlab qolish tartibini ishlab chiqish, shuningdek, xodimlar o‘z majburiyatları, odob-axloq qoidalarini buzgan hollarda ularga nisbatan choralar ko‘rish;

bank ustavi va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarni bajarishi lozim.

48. Boshqaruv a'zolari bank manfaatlari yo'lida vijdonan va oqilona harakat qilishga majbur bo'lib, ular quyidagi fidutsiar majburiyatlarga rioya etishlari lozim:

Qonun hujjatlari, bank ustavi hamda bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi hamda bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan strategiya va siyosatlarni amalga oshirishga doir qarorlarga rioya etgan holda majburiyatlarini o'z vakolatlari doirasida bajarish;

o'zlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshirishi uchun o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritish;

zarur va oshkora ma'lumotni belgilangan muddatlarda olish, ular bilan bog'liq tegishli chora-tadbirlarni ko'rish hamda shaxsiy malaka va tajribaga tayangan holda qarorlar qabul qilish;

manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarmaslikka oid talablarga rioya etish;

bank boshqaruvi organlari, shu jumladan, bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga nisbatan tenglik tamoyiliga rioya etish;

benuqson ishchanlik obro'siga ega bo'lish.

IX. Ma'lumotlar oshkoraligi va ochiqlik

49. Bankni korporativ boshqarish jarayoni uning manfaatdor tomonlari va bozor ishtirokchilari uchun shaffof, ochiq va oshkora bo'lishi kerak.

Korporativ boshqaruvning ochiqligi va oshkoraligi deganda manfaatdor tomonlarga Kuzatuv kengashi va Boshqaruvning samaradorligini baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish va yetkazish tushuniladi.

50. Korporativ boshqaruvning ochiqligini ta'minlash maqsadida bank ushbu Nizom va qonun hujjatlarida belgilangan ma'lumotlarni o'zining rasmiy veb-sayti va boshqa axborot vositalarida joylashtirib boradi.

51. Bankning manfaatdor tomonlarga oshkor etiladigan ma'lumotlar va ularni joylashtirish ishonchlilik va aniqlik, to'liqlilik, ma'lumotni olish erkinligi, o'z vaqtida va davriy ravishda taqdim etish, tezkorlik, bank siri va ma'lumot maxfiyligini ta'minlash tamoyillarga asoslanadi.

52. Ma'lumotlarini ochiq va oshkor bo'lishini ta'minlash maqsadida bank quyidagi ma'lumotlarni o'zining veb-saytida joylashtirib boradi:

Bankning strategik maqsadlari va korporativ qadriyatlar;

bank faoliyati tarixi, jumladan, bankni tashkil etish, qayta tashkil etish, qayta nomlash, faoliyati, o'ziga xos xususiyatlari yoki yo'nalishi o'zgorganligini aks ettiruvchi ma'lumotlar;

bankning davlat ro'yxatiga olinganligi, bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya to'g'risida ma'lumot (tartib raqami, berilgan sanasi, bank operatsiyalari ro'yxati), shuningdek, faoliyatini to'xtatib turishi, uni tiklash hamda bank faoliyatini amalga

oshirish huquqini beruvchi litsenziyaning O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chaqirib olinishi haqida (agar bunday holatlar yuzaga kelgan bo'lsa);

bank ustavining to'liq matni;

bank bosh ofisi ish tartibi, joylashgan joyi va kontakt ma'lumotlari, shuningdek, bankning hududlar (viloyat va shahar) kesimida tashkiliy tuzilmasi – bank infratuzilmasi (bank tarmog'i, ofis) nomi, joylashgan yeri, ish tartibi va ma'lumot uchun telefonlari. Bank tarmog'i (yoki boshqa infratuzilma) faoliyati vaqtinchalik to'xtatilishi yoki tugatilishi holatlarida, bank veb-saytining bosh varag'ida bu haqda xabar, ya'ni ushbu bank tarmog'i (yoki boshqa infratuzilma) nomi va joylashgan yeri, faoliyati vaqtinchalik to'xtatilishi yoki tugatilishi to'g'risidagi tegishli qaror sanasi, ushbu hodisa yuzasidan to'liq ma'lumot olish uchun aloqa vositalari hamda mijoz boshqa bank tarmog'iga yoki infratuzilmaga murojaat qilishi haqida ma'lumot;

bank faoliyati, tashkiliy va mulkiy tuzilmasi hamda holatiga doir o'zgarishlarga oid press-relizlar va xabarlar;

bankning mulkiy tuzilmasi.

53. Bankka tegishli bo'lgan bank guruhi tarkibi va uning tuzilishi:

Yuridik shaxslar nomi, bank guruhi tuzilmasi, ustav kapitalidagi ishtiroki, nomi, joylashgan yeri va bosh tashkilotning rasmiy veb-sayti;

bankning ichki tashkiliy tuzilmasi;

bank Kuzatuv kengashi qoshida tashkil qilingan barcha Qo'mitalar tarkibi, shu jumladan, qisqa shaklda ma'lumot, qo'mita a'zolarining boshqa tashkilotlarda egallab turgan lavozimi, malakasi va ish tajribasi hamda ushbu Qo'mitalarning asosiy vazifalari;

bank Kuzatuv kengashi va boshqaruv a'zolari hamda muhim ahamiyatga ega xodimlarning tarkibi, qisqa shakldagi shaxsiy ma'lumot, egallab turgan lavozimi, malakasi va ish tajribasi.

54. Korporativ boshqaruvga oid ichki hujjatlar:

odob-axloq qoidalari (standartlari, kodeksi va boshqalar), ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha bank siyosati, bankning dividendlar to'lash siyosati va boshqalar;

bankka reyting agentliklari tomonidan reyting taqdim qilingan bo'lsa, ushbu reyting agentliklarining ro'yxati, oxirgi uch yil ichida olingan reytinglari va ular bo'yicha reyting agentliklarining hisobotlari (tushuntirishlar);

qonun hujjatlariga muvofiq rasmiy veb-saytida joylashtirilishi kerak bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

bankning mulkiy tuzilmasi to'g'risidagi oshkor qilinadigan ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

bank ustav kapitalining kamida besh foiziga bevosita egalik qiluvchi aksiyadorlar haqida ma'lumot, ularning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi miqdori, aksiyasi turi (oddiy, imtiyozli), joylashgan joyi (yashash joyi), faoliyat turi (yuridik shaxslar uchun);

bank ustav kapitalining kamida besh foiziga bilvosita egalik qiluvchi aksiyadorlar haqida ma'lumot, joylashgan joyi (yashash joyi), faoliyat turi (yuridik shaxslar uchun) va bank aksiyalariga egalik qilishiga sabab bo'lgan boshqa ma'lumotlar; oxirgi benefitsiar mulkdor (agar mavjud bo'lsa) familiyasi, ismi va sharifi.

X. Yakunlovchi qoidalar

55. Mazkur Siyosat bilan yuklatilgan vazifalarning bajarilishi bank Boshqaruvi zimmasiga yuklatiladi.

56. Bank xodimlari ushbu Siyosat bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka, jumladan:

korruption harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

huquqbuzarlik, jinoyat yoki manfaatlar to'qnashuvi alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda bank rahbariyatiga xabar beradi.

57. Mazkur siyosat zaruriyatga ko'ra va joriy iqtisodiy vaziyatni hisobga olgan holda, bank strategiyasining o'zgartirilishiga, shuningdek bankning ichki me'yoriy hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni talab qiluvchi qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishiga qarab qayta ko'rib chiqiladi.

58. Siyosat bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan amalga kiritiladi.

59. Ushbu Siyosat kuchga kirgan sanadan ATB "Qishloq qurilish bank" Kuzatuv kengashining 2021-yil 16-avgustdagi 13-sonli yig'ilishi bayoni bilan tasdiqlangan Aksiyadorlik tijorat banki "Qishloq qurilish bank"ning Korporativ boshqaruv siyosati (222-son bilan ro'yxatga olingan) o'z kuchini yo'qotadi.

Kiritildi:

Korporativ boshqaruv xizmati
yetakchi menejeri

Sh. Maxammadov

Kelishildi:

Komplayens nazorat departamenti
direktori


J. Yusupov

Risk menejment departamenti direktori
birinchi o‘rribbosari

Lingvist

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig‘i





K.Karimov

A.Ravshanov

S.Raxmatullayev

100060 Toshkent shahar, Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko‘chasi, 18A-uy, tel/faks: +998(78) 150-93-39, yurist@brb.uz

2024-yil 1-mart

Toshkent sh.

YURIDIK XULOSA № 29

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Korporativ boshqaruv xizmati tomonidan ishlab chiqilgan “**Biznesni rivojlantirish banki**” aksiyadorlik tijorat bankining **Korporativ boshqaruv Siyosati**” loyihasi Yuridik departament Metodologiya boshqarmasi tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

Mazkur ichki me’yoriy hujjat Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan ro‘yxatga olingan “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizom (Nizomning 3-bo‘limi “Tijorat banklarining ichki me’yoriy hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, unga o‘zgartirish kiritish va bekor qilish”) talablariga muvofiq holda ishlab chiqilgan bo‘lib, amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqdir.

Shuningdek, hujjat loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ekspertizadan o‘tkazilib, unda korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar aniqlanmadi.

Yuridik departament Metodologiya
boshqarmasi boshlig‘i

S.Raxmatullayev

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Axborot va kommunikatsiyalar boshqarmasi
Ichki me’yoriy hujjat loyihasining lingvistik ekspertiza
Xulosasi

2024-yil 25-mart

Toshkent shahri

140 -son

1. Ichki me’yoriy hujjat loyihasining turi: - **Siyosat**
2. Ichki me’yoriy hujjat loyihasining nomi: - “**Biznesni rivojlantirish banki**” aksiyadorlik tijorat bankining Korporativ boshqaruv Siyosati
3. Lingvistik ekspertizani o’tkazuvchi: - **A.Ravshanov**
4. Lingvistik ekspertiza o’tkazilgan sana: - **2024-yil 25-mart**
5. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarori bilan tasdiqlangan “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ning lingvistik ekspertizadan o’tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Loyiha matni qisqa va lo‘nda, ta’riflar aniq, imlo, uslubiy, grammatik va orfografiya qoidalari mos, shuningdek, soha atamalari to‘g‘ri qo‘llanilgan.

Ekspert:


(imzo)

A. Ravshanov